

XALQARO MOLIYA OPERATSIYALARIDA XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ISHTIROKI

Malika Alijonova

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada xalqaro moliya operatsiyalarini boshqarishda xalqaro moliya institutlari ishtirokini o'rganishda mavzuga tegishli turli nazariy qarashlar va yondashuvlar aks ettirilgan. xalqaro moliya operatsiyalarini boshqarishda xalqaro moliya institutlari ishtiroki Osiyo taraqqiyot banki misolida tahlil qilingan. Tahlillar asosida xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: moliya, moliya operatsiyalari, moliyalashtirish, moliya institutlari, kreditlar, kapital, Osiyo taraqqiyot banki.

PARTICIPATION OF GLOBAL FINANCIAL INSTITUTIONS IN THE MANAGEMENT OF INTERNATIONAL FINANCIAL OPERATIONS

Abstract: This article reflects various theoretical views and approaches to the topic of studying the participation of global financial institutions in the management of international financial transactions. The participation of global financial institutions in the management of global financial transactions is analyzed using the example of the Asian Development Bank. Based on the analysis, conclusions are drawn.

Keywords: finance, financial transactions, financing, financial institutions, loans, capital, Asian Development Bank.

Kirish

Xalqaro moliya operatsiyalarini boshqarishda xalqaro moliya institutlari ishtirokini o'rganish bugungi globallashuv sharoitida nihoyatda muhimdir. Bunday o'rganish orqali mamlakatlar xalqaro moliya oqimlarini tartibga solish va barqaror rivojlanishni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Mazkur jarayonda yirik loyihalarni boshqarish ham muhim ahamiyatga ega. Xalqaro moliya institutlari tajribasi moliya bozorlarida yuzaga keladigan xavflarni boshqarishda katta ahamiyat kasb etadi. Ularning nazorat mexanizmlari va moliyaviy yondashuvlari iqtisodiy siyosatni shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlari mamlakatlar o'rtasida moliyaviy integratsiyani chuqurlashtiradi. Ularning ishtiroki kapital oqimlarini diversifikatsiya qilish va investitsiyalarni kengaytirishga

yordam beradi. Xalqaro moliya operatsiyalarini boshqarishda ularning tajribasini o'rganish ichki moliya bozorlarini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Xalqaro moliya institutlari faoliyatini tahlil qilish orqali barqaror moliyaviy infratuzilmani yaratish imkoniyati ortadi. Bu esa makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash va iqtisodiy xavflarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Ularning kreditlash, grant ajratish va texnik yordam ko'rsatish mexanizmlari rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ayniqsa foydalidir. Shu sababli, xalqaro moliya institutlari ishtirokini o'rganish mamlakat moliya siyosatini yanada puxta ishlab chiqishga yordam beradi. Bundan tashqari, moliyaviy operatsiyalarni xalqaro standartlarga mos ravishda boshqarish imkoniyatlari kengayadi. Shu sababli xalqaro moliya operatsiyalarini boshqarishda xalqaro moliya institutlari ishtirokini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Xalqaro moliya operatsiyalarini boshqarishda xalqaro moliya institutlari ishtiroki turli yirik loyihalarda ko'zga tashlanadi. Shu sababli quyida loyihalarni xalqaro moliya institutlari ishtirokida moliyalashtirishga tegishli ilmiy adabiyotlarni tahlil qilamiz. S. Gatti tomonidan loyihalarni moliyalashtirishning mazmun-mohiyati tadqiq qilingan. "Loyihani moliyalash bu o'z kapitali yoki mezonin qarzidan foydalangan holda homiylar tomonidan yaratilgan va kreditor pul oqimlarini asosiy manba sifatida ko'radigan ma'lum bir iqtisodiy subyektning SPV yoki loyiha kompaniyasini moliyalashtirish jarayonini ifodalaydi" [1].

F. Cottone va boshqalar fikricha, "loyihani moliyalashtirish bo'yicha bitim bir-biriga bog'liq bo'lmagan yo'nalishlar bo'yicha maslahatchilar hamda mutaxassislarning xizmatlarini talab qiladi. Homiylar va kreditorlar zimmasida loyihani amalga oshirish hamda loyiha bo'yicha strategik qarorlar qabul qilish vazifalari qoladi" [2]. Loyihalarni moliyalashtirishda moliyaviy vositachilarning xizmatlari ham muhim rol o'ynaydi. Chunki mazkur jihatga e'tibor qaratish loyihalarni moliyalashtirish amaliyotining muvaffaqiyatini belgilab beradi.

E. Teitey loyihalarni moliyalashtirishni "loyihani ishga tushirish va davom ettirish bilan bog'liq xarajatlarni boshqarish uchun zarur bo'lgan resurslarni qanday olish kerakligini aniqlash jarayoni" [3] sifatida ta'riflaydi. Ushbu jarayon ba'zan loyihani moliyalashtirish uchun resurslarni qayta taqsimlashni o'z ichiga olgan bo'lsada, loyihani moliyalashtirish, odatda, loyiha xarajatlarini qoplash uchun kreditlar yoki boshqa turdagi moliyalashtirishni ta'minlashni o'z ichiga oladi.

D. Gardner va J. Wright tomonidan loyihalarni moliyalashtirish hamda ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq qilishgan. "Loyihani moliyalashtirish, asosan, loyihaning turli manfaatdor tomonlari o'rtasida loyiha risklarini adolatli taqsimlash bo'yicha jarayon hisoblanadi" [4]. Loyihalarni moliyalashtirishda aynan risklarni diversifikatsiya qilish tomonlar uchun muhim jihatlardan biridir.

B. Nguyen rivojlanayotgan mamlakatlarda loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini tadqiq qilgan. "Rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy tizimlar rivojlanmaganligi va kraudfanding, venchur kapitali kabi muqobil moliyalashtirishning yo'qligi tufayli moliyalashtirish masalalari jiddiy hisoblanadi. Bunday vaziyatda bank kreditlari ko'pchilik kichik biznes subyektlari uchun yagona mumkin bo'lgan tashqi moliyalashtirish manbai bo'lib qoladi" [5]. Demak, tijorat banklari kreditlari rivojlanayotgan mamlakatlarda yanada ko'proq ahamiyatga ega.

“Kapital bozorini rivojlantirish, institutsional investorlar kapitallari va xizmatlari, shuningdek, aholi jamg‘armalarini kapital bozoriga keng ko‘lamda jalb qilishda robo-maslahatchilardan foydalanish bugungi kunda samarali yo‘llardan biri hisoblanadi. Xalqaro kapital bozori amaliyotda institutsional investorlar tomonidan robo-maslahatchilar xizmatlaridan foydalanish yuqori moliyaviy resurslar shakllantirish imkonini beradi” [6].

B. Mamatov va boshqalar tomonidan loyihaviy moliyalashtirish masalalarini tadqiq qilgan. “Loyihaviy moliyalashtirish bu investitsiya loyihalarini kreditlashning bir turi bo‘lib, kreditor bu loyihani amalga oshirish bilan bog‘liq risklarni qisman yoki to‘liq o‘z zimmasiga oladi” [7].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada xalqaro moliya operatsiyalarini boshqarishda xalqaro moliya institutlari ishtirokini o‘rganishda qiyoslash, taqqoslama tahlil, ilmiy abstraksiyalash, induksiya, deduksiya kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda turli mamlakatlar yirik loyihalarni amalga oshirishda xalqaro tashkilotlar va xalqaro moliya institutlari mablag‘lariga tayanmoqda. Mazkur jarayon mamlakatlarga turli yirik loyihalarni amalga oshirishda arzon moliyaviy resurslar jalb qilish hamda xalqaro moliya institutlari bilan integratsiyani kuchaytirish imkonini beradi. Xususan, Osiyo taraqqiyot banki (OTB) Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlaridagi rivojlanish loyihalarini uzoq muddatli kreditlash bo‘yicha yirik mamlakatlararo moliya institutlaridan biri hisoblanadi. Osiyo taraqqiyot bankining asosiy maqsadi Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga ko‘maklashishdir.


Osiyo taraqqiyot bankining faoliyati Osiyo va Tinch okean ko‘rfazida yashayotgan, ayniqsa kunlik \$2 dan kam tushumga ega bo‘lgan 1.9 milliardlik aholining turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan. Ko‘p sonli muvaffaqiyatli loyihalarga qaramay ushbu hudud butun dunyoning 2/3 nochor aholisi yashaydigan hudud bo‘lib qolmoqda.

Dastlab Osiyo taraqqiyot banki Jahon bankining asosan AQSh, Yaponiya va Yevropa davlatlari (ayniqsa Shimoliy va Germaniya) hukumatlari ta‘siriga ega bo‘lgan, hududiy nusxasi sifatida tashkil etilgan. Bank o‘z qarz berish harakatlarini, millatlararo tan olingan qarzlarni Yevropa bozoriga joylashtirish orqali moliyalashtirgan. Garchi a‘zo davlatlarning iqtisodiy rivojlanishi OTBning faoliyatini ham birmuncha o‘zgartirgan bo‘lsada, bank o‘z tarixida asosan proektlar asosida, xususan infrastruktura investitsiyalari, qishloq xo‘jaligi rivoji va a‘zo davlatlardagi oddiy sanoatini rivojlantirish uchun qarz berish, orqali faoliyat yuritgan. Berilgan ta‘rif bo‘yicha bank davlat va davlat tashkilotlariga qarz beruvchi bo‘lsada, u hududiy a‘zo davlatlarining xususiy sektorni rivojlantirish va likvidatsiyani yaxshilash borasida ham faollik ko‘rsatgan (1-rasm).



1-rasm. Osiyo taraqqiyot banki faoliyatining asosiy yo'nalishlari [8]

Osiyo taraqqiyot banki faoliyatining ustuvor sohalari mintaqaning butunicha uyg'unlashgan holda eng samarali yordam beradigan mintaqaviy va milliy dasturlardir. Bu sohalarga quyidagilar kiradi (2-rasm).




2-rasm. Osiyo taraqqiyot banki faoliyatining ustuvor sohalari [8]

Osiyo taraqqiyot bankiga a'zolik BMT ning iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha Osiyo-Tinch Okean Komissiyasi a'zolariga, shuningdek boshqa mintaqalar rivojlangan mamlakatlari va BMT ga va uning biron bir boshqa maxsus agentliklariga a'zo mamlakatlar uchun ochiq. 17 rivojlangan mamlakat, boshqa mintaqadan AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya va 17 g'arbiy Yevropa mamlakatini a'zolikka olgan.

Bank operatsiyalari ikki asosiy manbadan: oddiy kapital mablag'lari va maxsus mablag'lardan moliyalashtiriladi. Oddiy kapital mablag'lari Osiyo taraqqiyot bankiga a'zo mamlakatlarning kapital ulushlarini to'lashlaridan va investitsiyalardan keladigan daromad hisobiga shakllanadi. Maxsus mablag'lar a'zo rivojlangan mamlakatlar badallari, maxsus fondlar, ssudalar va investitsiyalardan daromadlar, shuningdek, Osiyo taraqqiyot banki kengashi maxsus qaroriga binoan oddiy kapital mablag'larini o'tkazish summaları ko'rinishida shakllanadi.

Osiyo taraqqiyot banki Maxsus mablag'lari katta bo'lmagan va kambag'al a'zo mamlakatlarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida imtiyozli ssudalar shahobchalarini tashkil etgan. 1973-yilda bank maxsus mablag'lar ni doimiyligini ta'minlash maqsadida Osiyo Taraqqiyot Fondi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi 1995-yilda OTBning a'zosi bo'ldi va 1997-yilda Toshkentda OTB vakolatxonasi ochildi. O'zbekistonning OTB bilan hamkorligi barcha tarmoqlarni rivojlantirishni qamrab olgan bo'lsada, amalga oshirilayotgan dastur va loyihalarda asosiy o'rinni 4 ta ustuvor tarmoqlar tashkil etadi (3-rasm).



3-rasm. O'zbekiston va OTB hamkorlik loyihalaridagi ustuvor tarmoqlar [9]

O'zbekiston OTBga a'zo bo'lgandan beri jalb qilingan mablag'lar boshqa O'rta Osiyo davlatlariga nisbatan ko'proqdir. 2018-yil 1-yanvar holatiga ko'ra O'zbekiston va Osiyo taraqqiyot bankining hamkorlik portfeli umumiy qiymati 14 milliard dollardan ziyodni tashkil etuvchi 59 loyihani o'z ichiga olgan bo'lib, ularni moliyalashtirish uchun bankning 6 milliard dollardan ko'proq mablag'i jalb qilingan. Shundan 225.0 mln dollar bo'lgan ikkita kredit xususiy sektorga yo'naltirilgan va 64.9 mln dollar qiymatidagi mablag' texnik yordam grantini tashkil etadi.

Talimarjon va Taxiatoch issiqlik elektr stansiyalarida zamonaviy bug'-gaz qurilmalarini barpo etish, yuqori voltli elektr uzatish liniyalarini modernizatsiya qilish, qishloq joylarda namunaviy uy-joy qurish, O'zbekistonning turli hududlarida suv

ta'minoti tizimi va sanitariya obyektlarini rekonstruksiya qilish, Amu-Buxoro mashina kanali tizimini qayta tiklash, Maroqand-Qarshi temir yo'lini elektrlashtirish, kichik biznesni, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va boshqa loyihalar Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida amalga oshirilgan.

Xulosa

Maqolada xalqaro moliya operatsiyalarini boshqarishda xalqaro moliya institutlari ishtirokini o'rganishda xalqaro moliya institutlari global moliya tizimida barqarorlikni ta'minlashda yetakchi o'rin tutishi aniqlandi. Ularning kreditlash, grant ajratish va texnik yordam mexanizmlari rivojlanayotgan mamlakatlar uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, xalqaro moliya institutlari mamlakatlar o'rtasida moliyaviy integratsiya jarayonlarini jadallashtirishda asosiy o'rinni egallaydi. Ularning ishtiroki kapital oqimlarini diversifikatsiya qilish va investitsion xavflarni kamaytirishga yordam beradi. O'rganish jarayonida, xalqaro moliya institutlari tajribasi milliy moliya tizimini mustahkamlashda samarali qo'llanilishi mumkinligi aniqlangan. Xalqaro standartlarga mos boshqaruv mexanizmlari mamlakatlarda shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytiradi. Bundan tashqari, ularning faoliyati iqtisodiy islohotlarning izchil amalga oshirilishiga ko'maklashadi. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik qilish milliy moliyaviy siyosatni samarali ishlab chiqish imkonini beradi. Shu orqali iqtisodiy xavflarni kamaytirish va barqaror rivojlanishga erishish osonlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Stefano Gatti. Project Finance in Theory and Practice (Fourth Edition) // Designing, Structuring, and Financing Private and Public Projects, 2024, Pages 1-35. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/B9780323983600000019>
2. Federico Cottone, Stefano Gatti, Sarah De Rocco, Massimo Novo. Project Finance in Theory and Practice (Fourth Edition). // Designing, Structuring, and Financing Private and Public Projects, 2024. - Pages 93-130. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/B9780323983600000044>
3. Emmanuel Teitey. The Role of Project Finance in Modern Financing. // International Journal of Research in Finance and Marketing, Volume 6, Issue 5, May, 2016. – p. 98.
4. David Gardner and James Wright. Project Finance. // Iberglobal, 2013. https://www.iberglobal.com/files/project-finance_hsbc.pdf
5. Bach Nguyen. Local institutions, external finance and investment decisions of small businesses in Vietnam. // Economic Systems, Volume 45, Issue 3, September 2021. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0939362521000285>
6. Omonov S. KAPITAL BOZORIDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHDA ROBOMASLAHATCHILARNING O'RNI //Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. – 2023. – С. 313-315.
7. B.Mamatov, D.Xujamkulov, O.Nurbekov. Investitsiyalarni tashkil etih va moliyalashtirish. // Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 451-b.

8. <https://www.adb.org/what-we-do> - Osiyo taraqqiyot bankining rasmiy sayti ma'lumotlari

9. Y.U.Arifjanova "O'zbekistonning Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorligini rivojlantirish masalalari".// "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy-elektron jurnali №3. 2016. - 3b.